



CERTAIN ISSUES OF OFFICIAL INTERPRETATION OF LEGAL NORMS

Ulug'bek Rustamovich Choriyev

*Faculty of Public Law, 2nd-year student
Tashkent State University of Law
E-mail: Ulugbekc824@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Legal interpretation, types of interpretation, methods of interpretation, official interpretation, interpretation of legal norms, subjects authorized to provide official interpretation of laws.

Received: 19.06.25

Accepted: 21.06.25

Published: 23.06.25

Abstract: This article addresses general theoretical issues of legal interpretation, the types of normative legal documents that require interpretation, and the author's perspective on related controversial issues. It also analyzes the subjects authorized to provide official interpretations of legal norms, comparing practices across different countries and legal systems. The author proposes methods to increase the effectiveness of official legal interpretation and outlines necessary actions to achieve this. These topics are explored in depth using various doctrinal sources and the legislation of foreign countries. The relevance of this article lies in the fact that the practice of interpreting legal norms serves as a guarantee to prevent violations of citizens' rights and freedoms by state bodies and officials, ensuring that the legislative intent is correctly understood and applied by executive and judicial authorities. Furthermore, discussing these issues provides solutions to various theoretical and practical problems and may attract the attention of other researchers by demonstrating the significance of this subject with practical examples.

QONUN NORMALARIGA RASMIY SHARH BERISHNING AYRIM MASALALARI

Ulug'bek Rustamovich Choriyev

*Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi
Toshkent davlat yuridik universiteti
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: Huquqni sharhlash, sharhlashning turlari, sharhlashning usullari, rasmiy sharh, qonun normalariga sharh, qonun normalariga rasmiy sharh beruvchi subyektlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqni sharhlashning umumiy-nazariy masalalari, qanday normativ-huquqiy hujjatlar sharhanishi kerakligi va bu bo`yicha umumiy bahsli masalalarga muallif yondashuvi, qonun normalariga rasmiy sharh beruvchi subyektlar va ularning turli davlatlarda, turli huquqiy tizimga ega davlatlar bo`yicha tahlili, qonun normalarini rasmiy sharhlash jarayonida samaradorlikni oshirish va buning uchun amalga oshirilishi shart bo`lga ishlar bo`yicha muallif takliflari yoritiladi. Yuqorida aytilgan masalalar turli ilmiy-doktrinal manbalar va xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida chuqr tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning dolzarbliqi qonun normalarini sharhlash amaliyotda davlat organlari va mansabdar shaxslar tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilmasligi kafolatini yaratish va qonun chiqaruvchi hokimiyat irodasining ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tomonidan to`g`ri anglanishi va amaliyotda to`g`ri qo`llanishining garovi ekanligi bilan bevosita bog`liqligidadir. Shuningdek, ayni masalani muhokama qilish orqali turli nazariy-amaliy masalalarga yechim topish mumkin va ushbu masalaning qanchalik ahamiyatli ekanligiga amaliy misollar berish orqali boshqa ilmiy tadqiqotchilar diqqat-e'tiborini ham jalb qilish mumkin.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОФИЦИАЛЬНОГО ТОЛКОВАНИЯ НОРМ ЗАКОНА

Улугбек Рустамович Чориев

Факультет публичного права, студент 2 курса

Ташкентский государственный юридический университет

Ulugbekc824@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Толкование права, виды толкования, методы толкования, официальное толкование, толкование правовых норм, субъекты официального толкования норм закона.

Аннотация: В данной статье рассматриваются общетеоретические вопросы толкования права, виды нормативно-правовых актов, подлежащих толкованию, а также авторский подход к спорным вопросам, связанным с данной темой. Проанализированы субъекты, уполномоченные давать официальное толкование правовых норм, с учетом различных стран и правовых систем. Автор предлагает пути повышения

эффективности официального толкования законов и мероприятия, необходимые для этого. Указанные вопросы глубоко проанализированы на основе различных доктринальных источников и законодательства зарубежных стран. Актуальность статьи обусловлена тем, что практика толкования норм закона гарантирует защиту прав и свобод граждан от нарушений со стороны государственных органов и должностных лиц, а также обеспечивает правильное понимание и применение воли законодателя исполнительной и судебной властью. Кроме того, обсуждение данной темы способствует решению различных теоретико-практических вопросов и может привлечь внимание других исследователей за счёт приведённых практических примеров, подтверждающих значимость темы.

Kirish. Huquq normalarini sharhlash orqali normativ-huquqiy hujjatlardagi noaniqliklar, ziddiyatlar va mavhumliklarga chek qo`yiladi. Aynan huquq normalarini sharhlash orqali huquqni qo`llovchi subyektlarda mayjud ikkilanishlarga batamom barham beriladi. Shunday ekan, bunda bir qator masalalarni hal qilish yuzaga chiqadi. Xususan, huquq normalarini sharhlash shu darajada muhim ekan, unda barcha normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash kerakmi va umuman buning obyektiv jihatdan imkonli bormi? Shuningdek, Inson huquqlari va erkinliklariga e'tibor eng birinchi o`ringa qo`yilishi uchun, ularning huquq va erkinliklari himoya qilinishidan oldin, albatta, ta'minlanishi kerak. Davlatning ushbu funksiyasini esa hokimiyatning bo`linish prinsipiga ko`ra qonun chiqaruvchi hokimiyat amalga oshiradi. Shunday ekan, qonun normalarini sharhlashda, ushbu vazifani amalga oshiruvchi subyekt oldida eng pirovard maqsad parlamentning ayni qonunni qabul qilish vaqtida nimani maqsad qilganini topa bilishdir. Ammo bunda muammoli masala sifatida aynan ushbu vazifani eng effektiv tarzda amalga oshira oladigan subyekt sifatida kimni tan olishimiz kerak? Bu bo`yicha xorijiy amaliyotda qanday mexanizmlar mavjud? Bularning barchasi juda muhim muammoli masalalar va ularning barchasini chuqur o`rganib, tahlil qilishga arziyi. Qolaversa, ushbu ilmiy izlanishlar natijasida davlatimiz uchun obyektiv jihatdan to`g`ri keladigan va barcha aholining manfaatlari uchun to`laqonli ravishda javob bera oladigan mushtarak bir yechimga kelish mumkin.

Metodologiya


Ushbu tadqiqotning maqsadi huquq normalarini sharhlashning umumiyligi masalalariga oid, shuningdek qonun normalarini sharhlashning maxsus masalalariga oid nazariy va amaliy

muammolarni tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu muammolarni tahlil qilish asnosida ularga xorijiy davlatlar amaliyotida qo`llanilayotgan yechimlarni analiz qilish va shuningdek ularga qo`shimcha tarzda muqobil huquqiy va tashkiliy yechimlarni taklif qilishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil va mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo`llagan.

Muhokama va natijalar

Qonun normalarini rasmiy sharplash va undagi muammolar muhokamasini boshlashdan avval ayrim muhim nazariy-huquqiy ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz darkor. Huquq normalarini sharplash deganda olimlar tomonidan ikki muhim jarayon nazarda tutiladi. Birinchisi, sharhlovchi subyektlar tomonidan sharhanuvchi norma mazmunini tushunib olish; ikkinchisi, uni tushuntirib berish [1]. “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida” gi qonunga ko`ra huquq ijodkorlari tomonidan huquq normalari aniq, tushunarli va lo`nda holatda ishlab chiqilishi kerak. Shundagina amaliyotda huquq normalarining qo`llanilishiga oid muammolar oldi olinadi va davlatda huquqiy-tartibotning holati ancha tez yaxshilanadi. Biroq amaliy jihatdan har bir normani bunday ishlab chiqilishiga erishish shunchaki imkonsiz. Aynan shuning uchun huquq normasini sharplash juda muhim jarayon hisoblanadi. U orqali qonunchilik hujjatlari o`rtasidagi turli ziddiyatlar hal qilinadi, mavhum normalar aniqlashtiriladi. Huquqshunos Samvel Jabaghyam huquq nomalarini sharplashni huquqiy tartibot jarayonini qog`ozdagi oddiy normadan amaliyotda mo`tadil ishlovchi normaga aylantiruvchi huquqiy vosita sifatida ta`riflaydi [2] Boshqa bir olim Zaloilo esa o`z asarlarida huquq normalarini sharplashni huquq ijodkorligi va huquqiy tartibot orasidagi ko`prik sifatida yoritib o`tadi [3]. Ushbu olimlar va boshqa bir qator olimlar tomonidan bildirilgan barcha fikrlar huquq normalarini sharplash naqadar muhim jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Huquq normalarini sharplash bo`yicha bo`yicha atroflicha ko`p miqdorda ilmiy asarlar yozilgan. Bu esa ayni sohadagi muammolarning bisyorligidan dalolat beradi. Bu muammolardan ayrimlarini keltirib o`tamiz va ilmiy maqola davomida ularga yechim berishga harakat qilamiz: 1) hamma normativ-huquqiy hujjatlar sharhanishi kerakmi? 2) qonun normalariga rasmiy sharh beruvchi subyektlar kimlar bo`lishi kerak; 3) qonun normalarini rasmiy sharplash jarayonini takomillashtirish va buning ahamiyati.

Birinchi masalaga to`xtalar ekanmiz, huquq normalarini sharplashning turlari haqida ma'lumotlarga ega bo`lishimiz kerak. Huquqshunos olim Saydullayev o`z asarlarida huquq normalarini sharplash turlari haqida ma'lumotlar berib o`tgan [4]. Ayni ma'lumotlarni sodda va lo`nda tarzda tushunishimiz uchun quyidagi grafikani taqdim qilamiz:



Ushbu grafik orqali huquq normalarini sharlashning rasmiy va norasmiy kabi turlari borligini ko`rishimiz mumkin. Va aynan birinchi savolimizga javob ham ayni huquq normalarini sharlashning turlariga oid. Ya`ni barcha normativ-huquqiy hujjatlar sharhanishi maqsadga muvofiq, ammo norasmiy sharh bilan. Bu bo`yicha Saydullayev o`zining ilmiy maqolasida quyidagicha fikr keltirib o`tadi: “Normativ-huquqiy hujjatlar jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlarnigina tartibga soladi, shunday ekan har bir qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hech bo`lmagan norasmiy sharplash orqali sharhanishi joiz” [5]. Albatta, bu fikr juda o`rinli va rasmiy sharplash orqali barcha normativ-huquqiy hujjatlar sharhanmasligiga sabab sifatida yana shuni qo`shimcha sifatida keltira olamizki, bu nazariyani amalga oshirish shunchaki imkonsiz va mantiqsizdir. Chunki normativ-huquqiy hujjatlardagi hamma norma ham amaliyotda doimiy ishlatilmaydi, hamma norma ham ziddiyatlarga olib kelmaydi va hamma normani ham mavhum deb bo`lmaydi. Aksincha faqat ayrim normalardagina ayni kamchiliklar kuzatiladi. Bu masala javobi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida” gi qonunning 55-moddasida ham aniq qilib yozilgan. Ya`ni: “Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharplash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto`g`ri yoki ziddiyatli tarzda qo`llanilgan taqdirda amalga oshiriladi”. Demak, ayni asoslar orqali birinchi savolga javob berib o`tdik.

Endi ikkinchi masalaga to`xtalamiz, ya`ni huquq normasiga rasmiy sharh beruvchi subyektlar. Ma'lumki, qonun normalariga rasmiy sharhni beruvchi subyektlar ikkiga bo`linadi, ya`ni rasmiy sharh berish huquqi faqat Konstitutsiyaviy sudga berilgan davlatlar; va barcha bog`indagi sudlarga berilgan davlatlar. Ushbu subyektlarning qaysi birining qo`llanilishi davlatlarning qaysi huquq oilasiga mansubligiga ko`p jihatdan bog`liq hisoblanadi. Xususan, anglo-sakson huquq oilasida normativ-huquqiy hujjatlarga sharh beruvchi subyektiv sifatida barcha bog`indagi sudlar namoyon bo`ladi. Roman-german huquq oilasidagi davlatlarga keladigan

bo`lsak, ularda qonun normalariga sharh beruvchi subyekt sifatida asosan Konstitutsiyaviy sud yoki unga parallel boshqa organlar keltirib o`tiladi. Germaniyada rasmiy sharh Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi tomonidan beriladi. [6]. O`zbekistonda ham ayni maqomdagı O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi Konstitutsiya va qonun normalariga rasmiy sharh beruvchi organ hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, ikki huquq oilasidagi rasmiy sharh beruvchi organlardagi asosiy farq, anglo-sakson huquq oilasidagi davlatlarda rasmiy sharhni barcha bo`g`indagi sudlar bera oladi, ammo roman-german huquq oilasidagi davlatlarda Konstitutsiya va qonun normalariga rasmiy sharh berish vazifasini faqat Konstitutsiyaviy sud yoki shu maqomdagı muqobil organ bajaradi. Albatta, ushbu mulohazamizda mavhumlikni oldini olish maqsadida yana bir narsani ta'kidlab o'tishimiz joiz. O`zbekiston amaliyotida ham albatta sudlar tomonidan rasmiy sharhslash amalga oshiriladi, ammo ushbu sharhslashning anglo-sakson huquq oilasidagi sudlar beradigan sharhdan o`ta ahamiyatli farqli jihatni mavjud. Bu esa ularning normativlik masalasi bilan bog`liq. Anglo-sakson huquq oilasida sudlar beradigan sharhlar normativ ahamiyatga ega bo`ladi, ya`ni bundan keyingi ayni shunday keyslarga ham ular bergen sharh tatbiq etiladi, ammo O`zbekistonda va boshqa ko`plab roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarda sudlar tomonidan berilgan sharhslash rasmiy sharhslashning alohida turi – kazual sharhslash sifatida ko`riladi. Ya`ni sudlar tomonidan beriladigan sharh, u sharhni bergen ayni holatgagina tatbiq etiladi, ushbu sharhning bunday keyingi holatlarga biror ahamiyatli ta'siri bo`lmaydi. Huquq normalarini uni qabul qiluvchi organ tomonidan emas, balki sudlar yoki aniq bir yuqori bog`in sudlov organi tomonidan sharhlahnishi ularga katta ma'suliyat yuklaydi. Chunki huquq normalarini sharhlahda eng muhim masala bu qonun chiqaruvchining bu qonunni qabul qilishdan ko`zlagan maqsadini ifodalab bera olishdir. Ushbu fikrimizni huquqshunos olim Voplenkoning “huquq normasining eng to`g`ri sharhlanishi - uning maqsadidan kelib chiqib sharhlanishi” degan fikri [7], boshqa bir huquqshunos olim Samvel Jabaghyanning “Qonun chiqaruvchi organ qabul qilgan qonundan uning asl maqsadi yaqqol ko`rinib turishi kerak, lekin buning amaliy jihatdan imkoniy yo`q, aynan shuning uchun huquq normalarini sharhslashga ehtiyoj tug`iladi”, degan fikri [8], shuningdek, A.Marmorning “Agar qonunning maqsadi bo`yicha savol tug`ilmasa, uni sharhslash bo`yicha savol tug`ilishi haqida gap bo`lishi mumkin emas” [9]. degan fikrlari, bundan tashqari Pinar Okurning sudlarning huquq normalarini sharhslashdagi asosiy vazifasi Parlamentning maqsadini to`g`ri aniqlay olishdir” [10] kabi fikrlari ham tasdiqlaydi.

Bu masalada ko`pchilik olimlar mushtarak mulohazaga kela olishgani uchun bu haqidagi muhokamalarni uzoq davom ettirmay asosiy masalaga – ya`ni aynan qaysi huquq oilasidagi tizimni davlatimizda qo`llanilishi maqsadga muvofiqligi haqidagi masalaga to`xtalamiz. Bizningcha, Konstitutsiya va qonun normalariga sharh berish vakolati Konstitutsiyaviy sudda bo`lish maqsadga muvofiqdir. Bunga asos qilib quyidagi sabablarni keltira olamiz. Birinchidan,

Konstitutsiya va qonun har bir davlatning eng yuqori yuridik kuchga ega bo`lgan normativ-huquqiy hujjatlari hisoblanadi, shunday ekan ushbu normalarga rasmiy sharhning davlatning eng oliy konstitutsiyaviy organi bo`lmish Konstitutsiyaviy sudda bo`lishi kerak. Bu ushbu normalarga beriladigan sharhning ahamiyati va samaradorligini oshiradi degan fikrdamiz. Ikkinchidan, ushbu ikki eng muhim normativ-huquqiy hujjatlarga sharh berish vakolatini bitta organga berish orqali sharhlarning tizimli bo`lishiga erishamiz va aynan bu muqobil tajribani qo`llash natijasida kelib chiqishi mumkin bo`lgan potensial muammolarni oldini oladi. Ya’ni agarda ayni vakolatni barcha bo`g`indagi sudlarga beradigan bo`lsak, ayrim holatlarda ziddiyatlarni hal qiluvchi huquqiy vosita sifatida ko`rilayotgan sharhlarning o`zida ham ziddiyatlar vujudga kelib qolishi mumkin.

Vanihoyat, eng oxirig masalaga to`xtalamiz. Biz O`zbekistonda mavjud normativ-rasmiy sharhslash jarayonini takomillashtirish kerak va mavjud normalarga ilmiy-doktrinal manbalardagi eng muhim ma’lumotlardan foydalangan holda to`ldirish va aniqlashtirishlar kiritilishi darkor deb hisoblaymiz. O`z navbatida, ushbu masalaning dolzarbligini alohida ta’kidlashimiz va bu bo`yicha aniq amaliy misollarni taqdim etish ham o`rinli degan fikrdamiz. 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi qonunning 31-moddasisining ikkinchi qismiga sharh berish masalasi bo`yicha Konstitutsiyaviy sudga K.Muzaffarovning murojaati munosabati bilan Konstitutsiyaviy sud ushbu normaga sharh bergen. O`sha paytdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonun 31- moddasining ikkinchi qismida “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qonunlarning normalariga O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sharh beradi”, deb belgilangan edi. Ayni o`sha paytdagi qonun 6-moddasining ikkinchi qismiga asosan esa “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari qonunlar hisoblanadi”. Bu ikki norma esa o`zaro ziddiyatni va rasmiy sharhga nisbatan zaruratni keltirib chiqargan. Konstitutsiyaviy sud bunda turli normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarga tayangan holda asosli rasmiy sharh bergen va bu natijasida qonunlar tushunchasiga Oliy Majlis palatalarining qarorlari kirmaydi degan xulosaga kelingan. Aynan shundan keyin yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to`g`risida” gi qonunda shu kabi ziddiyatlarni oldini olish maqsadida Qonunning ayni normasi quyidagi mazmunda o`zgaritirilgan: “O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir”. Ko`rib turganimizdek, rasmiy sharhlar amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega va ular normativ-huquqiy hujjatlarning o`zgartirish darajasigacha borishi mumkin. Shunday ekan, bu boradagi bir qancha muammoli masalalarni sanab o`tish va ularga yechim berishga harakat qilamiz. Birinchidan, amaldagi qonunchiligidan normativ-huquqiy hujjatlarni sharhslash protsessini aniq tartibga soluvchi normalar mavjud emas. Bunda ushbu masalalarni tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjat yoki yo`riqnomalar qabul qilish

kerak degan fikrdamiz. Bunda ushbu hujjatda quyidagi masalalarni norma ko`rinishida alohida mustahkamlab qo`yish tavsiya etiladi: a) rasmiy sharhlashga doir eng muhim tushunchalar, shu jumladan kazual sharhlash tushunchasi va uning maqomi; b) rasmiy sharhlashda ishlataladigan sharhlash usullari; c) rasmiy sharhlashning huquqiy oqibati maslaasi; d) rasmiy sharh talab qilib murojaat qilish tartibi; e) rasmiy sharhlarni ommaga e`lon qilishiga nisbatan imperativ talab.

Yuqoridagi masalalardan ayrimlariga to`xtalib o`tmochimiz. Hozirda deyarli dunyoning har bir nutqasida fuqarolarning manfaatlari birinchi o`ringa qo`yilmoqda. Shunday ekan, fuqarolar manfaatini ko`zlagan holda qonun normalariga rasmiy sharh so`rab murojaat qilishning fuqarolar uchun qulay, ortiqcha byurokratik normalardan holi bo`lgan bir tartib ishlab chiqilmog`i darkor. Shundagina fuqarolar o`zlarini qiynayotgan masalalarda asosli yechimlarga ega bo`lishlari mumkin. Yana bir juda e`tiborga olinishi talab qiladigan masalalardan bir chiqarilgan rasmiy sharhlarni ommaga e`lon qilishni Konstitutsiyaviy sud uchun majburiy qilish kerak. Bunda har bir sharhni fuqarolar oson topa olishi uchun davlat funksiyalarini amalga oshirish tartibga ko`ra nohuquqiy turidan foydalanib, turli texnik amallarni amalga oshirishni taklif qilaman. Masalan, barcha sharhlar har bir fuqaro tushunadigan tarzda, sodda strukturadan tashkil topgan veb-sahifaga joylashtirilishi; fuqarolar ko`p ishlatuvchi ijtimoiy sahifalar, xususan, telegram, facebook kabi tarmoqlarda aynan rasmiy sharhlar joylashtiriladigan sahifalar tashkillashtirilishi va bundan har bir fuqaroning xabar topishini ta'minlash kerak. Shundagina fuqarolar o`zlarini qiynab kelayotgan masalalar bundan oldin Konstitutsiyaviy sudda ko`rib chiqilgan yoki yo`qligi haqida aniq va ishonchli ma'lumotga ega bo`lishlari mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, har bir qabul qilnayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga rasmiy sharh berishning obyektiv jihatdan imkon yo`q. Huquq normalariga rasmiy sharh faqat ziddiyatlar va noaniqliklar bo`lganda, amaliyotda normaning qo`llanilishi bo`yicha muammolar yuzaga kelganda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Biroq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga norasmiy sharhning, ayniqsa ilmiy-doktrinal va professional norasmiy sharhlarning ishlab chiqilishi tarafborimiz. Ayni ishni amalga oshirish orqali davlatimizda sifatli bo`lajak yuridik kadrlar yetishib chiqishiga katta hissa qo`shish mumkin deb hisoblayman. Ikkinchidan, qonun normalariga sharh beruvchi subyekt sifatida Konstitutsiyaviy sud qolishi zarur degan fikrdamiz. Bunda asosiy sabablar sifatida sharhlashning samarali bo`lishi va tizimli bo`lishi kabilarni keltira olamiz. Uchinchidan, qonun normalariga rasmiy sharh berish masalalarini tartibga solish bo`yicha alohida normativ-huquqiy hujjat yoki yo`riqnomalar qabul qilish kerak degan fikrdamiz. Bu orqali ayni masalaning barqaror bo`lgan muayyan tartibi ishlab chiqiladi va murojaat qilishning soddaroq usullari ishlab chiqiladi degan qarashdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi. — T., 2018. — 528 bet;
2. Государство и право N 2 (96) 2023 99 <https://doi.org/10.46991/S&L/2023.96.099> current issues of application of legal interpretation methods Samvel Jabaghyan phd student at the YSU Chair of Constitutional Law.
3. Zaloilo, M. V. 2010. Specification and interpretation of legal rules: Problems of correlation and inter- action. Russian Law Journal 5: 105–112.
4. Saydullayev.Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2021. – 250 b.
5. Saydullaev S.A. (2017). The importance of the interpretation of the normative legal acts in the process of law enforcement.– P. 280
6. ARSHAKYAN, Mher; PAFFARINI, Jacopo; STAFFEN, Márcio Ricardo. Constitutional Interpretation and Foreign Law: A Comparative Analysis between the U.S. Supreme Court and the German Federal Constitutional Court. A&C – Revista de Direito Administrativo & Constitucional, Belo Horizonte, ano 16, n. 66, p. 85-129, out./dez. 2016. DOI: 10.21056/aec.v16i66.363.
7. Voplenko N.N. Oficialnoe tolkovanie norm prava [Official Interpretation of the Law]. Moscow, Yurid. Lit. Publ., 1976. 118 p
8. Supreme note 2.
9. Voplenko N.N. Oficialnoe tolkovanie norm prava [Official Interpretation of the Law]. Moscow, Yurid. Lit. Publ., 1976. 118 p
10. Pinar Pinar Okur. – Statutory interpretation and common law